

ZAMONAVIY TAYM MUHITIDA MADANIYATLARARO MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

RESPUBLIKA ILMIY-MALIIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'PLAMI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



BUXORO
2025-YIL 27-MAY

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA
MADANIYATLARARO
MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI
VA TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'Plami
2025-yil 27-may

BUXORO – 2025

2. Акмеология: Учебное пособие / А. Деркач, В. Зазыкин.- СПб.: Питер, 2003. – 256 с.
3. Акмеология качества профессиональной деятельности специалиста : монография / Н.В. Кузьмина, С.Д. Пожарский, Л.Е. Паутова. – Санкт-Петербург : Евразийский открытый институт, 2008. – 376 с.

ЖАҲОН ТАРАҚҚИЁТ КОНТЕКСТИДА ЭКОЛОГИК САВОДХОНЛИК МУАММОСИ

*Файзиева Асал Анвар кизи
БухДУ 2-Іэко-22 гуруҳ талабаси
Илмий раҳбар :
Н.Ж.Бобомуродова*

Аннотация: Ушбу мақолада жаҳон миқёсида кечаётган илмий-техникавий тараққиёт, саноатлашув ва урбанизация жараёнлари билан боғлиқ равишда экологик муаммоларнинг ортиши ва шу билан бирга экологик саводхонликнинг аҳамияти ортиб бораётгани таҳлил этилади.

Калит сўзлар: экологик саводхонлик, барқарор ривожланиш, экологик таълим, атроф-муҳит, глобал муаммолар, экологик маданият, таълим тизими, жамоатчилик онги, халқаро тажриба

Аҳоли турмуш тарзининг яхшиланиши, илм-фан, тиббиёт соҳасидаги тараққиёт табиий равишда аҳоли сонининг ўсишига олиб келди. Бу эса ўз навбатида табиий ресурслардан фойдаланиш кўлами ошишига сабаб бўлди. Табиий ресурслардан нооқилона, режасиз фойдаланиш экологик вазиятнинг ёмонлашувига таъсир кўрсатгани ҳам унинг глобал аҳамият касб этиши билан изоҳланади.

XXI- асрда фан ва техника тараққиёти янги босқичга қадам қўйди. Айниқса илм-фан соҳасидаги инновациялар асосидаги кашфиётлар орқали фан ва техника қудратли ишлаб чиқарувчи кучга айланди.

Фан ва техниканинг қудратли тараққиёти иқтисодиёт негизидан янги тамаддуннинг шаклланиши тенденциясини вужудга келтирдик, уни глобаллашув жараёни деб аташ одат бўлди.

Бизни ўраб турган ва соғлиғимизга хавф туғдираётган атроф-муҳитнинг ҳолати ҳақидаги маълумотлар барчамизни озми-кўпми экологларга айлантириб қўйди. Инсоннинг негатив фаолияти атроф-муҳитга ҳалокатли таъсир қилса, планетамизнинг ҳозирги ҳолати инсон соғлиғига ўзига хос таъсир кўрсатади деган фикрлар яшаб турган давримизнинг асосий экологик муаммосига айланди.

Экологик саводхонлик муаммоси бўйича манбаларнинг таҳлили ҳозирги кунда бутунжаҳон илмий-педагогик жамоаси томонидан бир канча умумий принцип ва қондалар ишлаб чиқилганлигини кўрсатмоқда.

1. Бизни ўраб турган атроф-муҳит бутун бир яхлит тизимни ташкил этган ҳолда ўз таркибига «инсон фаолияти билан боғлиқ бўлган табиий аспектларни олади». (Экологик таълим масалалари бўйича ЮНЕСКО комиссияси доклади)

2. Бизни ўраб турган атроф-муҳит инкироз ҳолатида.

3. Атроф-муҳитнинг инкирози тизимли характерга эга бўлиб, глобал даражага кўтарилмоқда.

4. Глобал инкирознинг асосий сабаби инсониятнинг табиий ресурсларни ҳолсизлантириш ёки дегрэдацияси ҳисобидан иқтисодий ўсиш орқали ўзининг моддий эҳтиёжларини қониқтиришга интилиши билан изоҳланади.

5. Инкироздан чиқишнинг йўллари нафакат экологик хавфсиз технологияларни ривожлантириш ва маҳсулотлар ишлаб чиқариш, шунингдек инсониятнинг эҳтиёжлари ва турмуш тарзи билан боғлиқ бўлмаган янги ахлокий нормалар ва ғояларни шакллантиришга боғлиқ бўлади.

6. Шундай ахлокий нормалар ва ғояларни ташкил қилиш жараёнидаги асосий ролни узлуксиз экологик таълим ва аҳолининг экологик саводхонлигини ошириш масаласи эгаллайди.

Экологик таълим-тарбияни мустаҳкам асосда йўлга қўйиш глобал экологик инкирознинг олдини олишнинг муҳим омилларидан бири эканлигини жаҳон ҳамжамияти тушуниб етди. Бу соҳадаги стратегик йўналиш сифатида аҳолининг маълум қисми ва гуруҳлари, шунингдек алоҳида шахсларнинг эътиқоди ва хатти-ҳаракатларига таъсир кўрсатиш назарда тутилади.

Бизнинг фикримизча экология, ўқитиладиган фан сифатида барча экологик муаммолар бўйича аниқ ва тўлиқ маълумотларни ўзида мужжасамлаштириб, мавжуд муаммоларни ечиш, уларнинг олдини олиш йўллари, чора-тадбирларини белгиловчи маёқ вазифасини бажариши лозим. Бизнингча инсонларни экологик онгли қарорларни қабул қилишга ўргатиш, экологик таълим ва саводхонликнинг асосий мазмунини ташкил қилиб, ҳар қайси инсоннинг экологик муаммоларни юзага келишида ва атроф-муҳитнинг зарарланишига уз ҳиссаси борлигини англаш, тушуниб етишга ўргатади.

Экологик билимларни ўқитишда позитив ҳолда ёндошиш зарур. Шу сабабли экологик таълимнинг самарадорлигини таъминлаш учун уни планетамиз аҳолисининг барча қатламларига йўналтириш лозим. Бизнинг аҳолимиз экология ҳақида нимани билади? «Экологик хавф нима?, каби мавзуларга доир бир қатор, педагоглар иштирокидаги мулоқот-дискуссияларнинг якуни табиатни муҳофаза қилиш зарур ва инсон атроф-муҳитга негатив таъсир кўрсатмоқда деган хулосаларга олиб келади

Аҳолининг кўпчилиқ қисми атроф-муҳитнинг ўзи нима? Унинг асосий компонентлари нималар, бу компонентлар бир-бири билан қандай боғланган, уларнинг ҳар бирига ва алоҳида бутун яхлит тизимига инсоннинг таъсири қандай, шунингдек, инкироз ҳолатининг ҳақиқий сабаблари нимада ва экологик вазиятни қандай қилиб ижобий томонга ўзгартiriш ҳақидаги тушунчалар, билимларга эга эмаслигини таъкидлашимиз зарур.

Бизнинг фикримизча экологик билимлар барча ихтисосликлар бўйича мутахассисларни тайёрлашнинг ажралмас қисми булиши зарур. Шунингдек таълим тизими ходимлари ўз педагогик фаолиятларининг «экологик мазмуни» ни тушунган ҳолда таълим жараёнидаги барча фанларни ўқитишда экологик билимларни интеграциялаш, уйғунлаштиришга эришмоғлари муҳим аҳамият касб этади.

Экологик билимларнинг интегратив характери таълим жараёнини янгидан ташкил этиш имкониятини беради.

- Биринчидан бирор бир ўқув предмети йўқки улар чегарасида экологик билимларга жой бўлмаса.

- Иккинчидан экологик таълим беришни таълим муассаларидан ташқарида яъни оммавий экскурсиялар, сайрлар, оромгоҳлар, тематик ҳафталар, экспедициялар шаклида ташкил қилиш мумкин.

Экологик билимларнинг интегратив характери инсонпарварлик ғояларга асосланган, ҳар томонлама шаклланган бутун бир яхлит дунёқарашни пайдо бўлишига бетакрор имконият яратади.

Экологияни ўқитиш ва унинг мазмунида: ҳудудий ва этно-маданий хусусиятлар, шунингдек алоҳида ижтимоий, профессионал ва маълум ёш давридаги жамоалар, гуруҳларнинг ўзига хос кизиқишлари ва истаклари ҳисобга олинса, бу вазифа жуда кизиқарли ва ҳар томонлама қамраб олувчи ҳолат касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Курбонов М.Х., Абдурахмонов Қ.Х. *Экология ва атроф-муҳит муҳофазаси*. – Тошкент: «Фан», 2019.

2. Суюнов А. *Экологик маданият ва таълим*. – Тошкент: “Маънавият”, 2021.
3. Каримов И.А. *Барқарор тараққиёт йўлидан боришдамиз*. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015.

ZAMONAVIY TA'LIM YUTUQ VA MUAMMOLAR

Tag'oyeva Dilnavoz Narzikulovna
Buxoro davlat Pedagogika instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi
f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo'lidagi fikr va mulohazalar, jumladan, o'quv dasturlarni takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, ilmiy tadqiqot ishlarini davr talablari asosida tashkil etish, bu borada xorij tajribalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlari hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalarni rivojlantirish kabilar haqida so'z yuritiladi. O'zbekistondagi umumta'lim maktablarining 9 yillik ta'imdan 11 yillik ta'limga o'tishlari hamda oliy ta'lim muassasalaridagi kredit-modul tizimini joriy etilib, uning talabalarning tahsil olishlaridagi yutuq-kachiliklari va ushbu ta'lim tizimi joriy etilishidan oldingi tizim bo'lgan an'anaviy ta'lim tizimining kamchiliklari haqida ham biroz fikr bildirilib ketiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ECTS, kredit-modul, modernizatsiyalash, bakalavr, magistrature.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-

yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Masalan, kelayotgan 2020-2021 o'quv yilining o'zida mamlakatimizdagi 33dan ortiq yirik oliy ta'lim muassasalar kredit-modul tizimiga o'tishgan edi. Mazkur oliy ta'lim muassasalarda asosan ECTS (Evropen Credit Transfer System) kredit-modul tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Kredit – modul tizimining imkoniyatlari va afzalliklarini bayon qilishdan avval uning asosiy tushunchalariga to'xtalib o'tish lozim:

- o'qitishning kredit-modul tizimi modulli o'qitish texnologiyalari va ECTS (inglizcha. European Transfer and Accumulation System - kursdan- kursga o'tish va ball to'plashning Yevropa tizimi) sinov kreditlari birligida amalga oshiriladigan o'quv jarayonini tashkil etish modeli;

- ECTS (Evropen Credit Transfer System) – Yevropaning 45 davlati tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlashni Yevropa tizimi;

- “kredit” tushunchasi o'zida kasbiy tayyorgarlik mazmunida o'quv fanlari ulushini hisobga olish imkonini beruvchi miqdoriy tavsifini o'zida ifoda etadi. Kredit u yoki bu kursni yoki yaxlitlikda ma'lum bir ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun zarur o'quv yuklamasi va unga ajratilgan vaqtni aniqlash uchun zarur.

Sinov krediti – talabani o'quv yuklamasini o'lchash birligi. U talabani individual rejasida ko'zda tutilgan va tasdiqlangan barcha turdagi o'quv ishlarini hisobga oladi. Oliy ta'limga nisbatan qo'llanilganda “modul” deganda o'quv fanlari bo'yicha ta'lim dasturlarini mustaqil, mantiqiy tugallangan qismi nazarda tutiladi. Modul fannig ma'lum tugallangan qismi

SHAXSNING BILISH JARAYONLARI. DIQQAT.....	654
<i>Shirinova Shahnozabonu Shokirovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQUISH	656
<i>Shodmonova Abera Shodiyevna,</i>	
OLIV O'QUV YURTI TALABALARIDA O'QUV MOTIVASIYALARI SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI DIAGNOSTIKASI VA BIRLAMCHI TAHLILI	659
<i>Shukurulloeva Sadoqat Sodatullo qizi</i>	
TALABALARNI PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	663
<i>Baxromov Javohir Burxon o'g'li,</i>	
TEACHING LINGUISTIC-CULTURAL UNITS IN LITERATURE: CHALLENGES AND PEDAGOGICAL STRATEGIES.	666
<i>Norov Jamshid Nurulloyevich</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SAMARADORLIGIDA AHAMIYATI.....	667
<i>Boltaboyeva Shahzoda Sharipovna</i>	
SPORT MURABBIYLARIDA KOGNITIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH..	669
<i>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</i>	
AKMEOLOGIK KOMPITENTLIKKA EGA BO'LISHDA O'Z USTIDA ISHLASH, O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	672
<i>Ramazonova Mashhura Ulug'bek qizi</i>	
ЖАҲОН ТАРАҚҚИЁТ КОНТЕКСТИДА	674
ЭКОЛОГИК САВОДХОНЛИК МУАММОСИ	<u>674</u>
<i>Файзуева Асат Анвар кизи.</i>	
<i>Н.Ж.Бобомуродова</i>	
ZAMONAVIY TA'LIM YUTUQ VA MUAMMOLAR.....	676
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narzikulovna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SOG'LOM QILIB TARBIYALASHDA "MEN KONSEPSIYASI" NING IJTIMOY AHAMIYATI VA O'RNI	680
<i>To'xtayeva Sokina Qurbon qizi</i>	
TARBIYALANUVCHILARDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	684
<i>To'ymurodova Dilnoza Dilmurodovna</i>	
MUZEYGA TASHRIFLAR ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	686
<i>Usanova Xurshida Ishdavlatovna,</i>	
TA'LIM JARAYONIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISHNING ZARURIY SHARTI VA AHAMIYATI.....	688
<i>Xaitova Nodira Bafoyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MEHNAT TA'LIMI VA MEHNAT TARBIYASINING VAZIFALARI	691
<i>Xudaybergenova Adolat Usmanovna</i>	
HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA AKS ETGAN SHAXS QIYOFASI VA UNI ZAMONAVIY TA'LIMDA QO'LLASHNING AMALIY VOSITALARI	693
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i>	
USING VISUALS IN TEACHING ENGLISH TO PUPILS OF SECONDARY SCHOOLS	698
<i>Kochkorova Zulfizar Abdukhamid kizi</i>	
BOSHQARUV FAOLIYATINING ILMIY ASOSLARI	700
<i>Aslanov Said Karimovich,</i>	